

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Qo'lyozma huquqida
UO'K: 334.72.012.64:330.322**

ABDUVOHIDOV BEHZOD

**ISHBILARMONLIK MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

**08.00.15 – “Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti” ixtisosligi
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yoziladigan dissertatsiya**

**Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna**

TOSHKENT-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHIDA ISHBILARMONLIK MUHITINING NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati va ijtimoiy funksiyalari.....	13
1.2. Ishbilarmonlik muhiti tushunchasi, tarkibi va rivojlanish bosqichlari	26
1.3. Ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga oid xorijiy mamlakatlar tajribasi	37
I bob yuzasidan xulosa	50
II BOB. O‘ZBEKISTONDA ISHBILARMONLIK MUHITI VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKOLIKNI HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	52
2.1. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tendensiyalari.....	52
2.2. O‘zbekistonda ishbilarmonlik muhitini holati va kichik biznes subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlili.....	65
2.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari xo‘jalik faoliyati va ishbilarmonlik muhitiga ta’sirining ekonometrik tahlili.....	77
II bob yuzasidan xulosa	86
III BOB. ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ORQALI KICHIK BIZNESNI VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI VA YO‘NALISHLARI.....	88
3.1. Istiqbolda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo‘llari.....	88
3.2. Ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish istiqbollari.....	101
3.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun qulay iqtisodiy muhit yaratishning ustuvor yo‘nalishlari	113
III bob yuzasidan xulosa	124
Xulosa	127
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	131

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyaviy faollikni kuchaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga egadir. Tadbirkorlik uchun qulay institutsional muhit yaratilishi, soddalashtirilgan litsenziyalash va soliq tizimlari, moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoniyati hamda mulk huquqlarining kafolatlanishi kichik biznes subyektlarining samarali faoliyatiga asos bo'ladi. Jahon bankining hisobotida ta'kidlanishicha: "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorga asoslangan o'sishni rag'batlantirish uchun biznesga qulay tartibga solish muhitini yaratish juda muhim hisoblanadi"¹. Bu esa, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali xususiy sektor faolligini kuchaytirish va iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash imkonini yaratadi.

Jahonda tadbirkorlik subyektlari uchun institutsional to'siqlarni bartaraf etish, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini oshirish orqali barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni ochish va yuritish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, litsenziya va ruxsatnomalar tizimini avtomatlashtirish, soliq yukini optimallashtirish, xususiy mulk huquqlarini huquqiy muhofaza qilish mexanizmlarini kuchaytirish hamda moliyaviy resurslardan teng va shaffof foydalanish imkoniyatlarini yaratish kabi masalalar ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillardagi jadal islohotlar natijasida sifat va miqdor jihatidan samarali bandlikni ta'minlashga yo'naltirilgan yangi tizim shakllandi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

¹ <https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/32436>

strategiyasida belgilab berilgan mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish, mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida o'qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish" vazifalari dasturulamal sifatida xizmat qiladi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda "ishbilarmon tadbirkorlik" tushunchasining ilmiy-uslubiy asoslarini kengaytirish, tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini aks ettiruvchi faoliyat samaradorligi chegaralari baholash shkalasini kiritish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning asosiy tarmoqlaridagi hamda jami bandlikdagi ulushining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-son "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-son "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4862-son "Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019-yil 20-noyabrdagi PQ-4525-son "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.